

**40'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZILIGI  
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**“XALQARO TURIZM” FAKULTETI**

Qo'lyozma huquqida

*UDK: 65 9 (2)301*

**BARATOVA XOSIYAT ABDUMO'MIN QIZI**  
**ERKIN IQTISODIY XUDUDLAR VA ULARNING BOJXONA  
TA'MINOTINI TASHKIL ETISH.**

**70410302– Bojxona ishi (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)  
mutaxassisligi bo'yicha**

**Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan**

**DISSERTASIYA**

**Ilmiy rahbar:**


Phd. F.Xo'jaev

**TOSHKENT – 2023**

Magistrlik dissertasiyasi "Biznes boshqaruvi va logistika" kafedrasida dastlabki ximoya o'tgan.


35-sonli bayonnoma " 10 " 05 2023 y.

Kafedra mudiri: prof. Gafurov U.V.

  
imzo


24.05  
sana

Ilmiy rahbar: i.f.f.d., Phd. F.Xo'jaev

  
imzo

23.05  
sana

Talaba: Baratova X.A.

  
imzo

19.05  
sana

## ANNOTATSIYA

O'zbekiston Respublikasi bojxona organlariga yuklatilgan asosiy vazifalardan biri bo'lib bu erkin iqtisodiy hududlarda tovarlar va transport vositalari harakatini tartibga solishdan iboratdir. Mamlakatimizda yuqori texnologiyali yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish, hududlarni raqobatdosh va eksportga yo'naltirilgan zamonaviy sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni o'zlashtirishga yanada faol jalb qilish, ishlab chiqarish, muhandislik-kommunikatsiya, yo'l-transport, ijtimoiy infratuzilma va logistika xizmatlarini jadal rivojlantirishni ta'minlash uchun to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishni kengaytirishning eng muhim omili sifatida erkin iqtisodiy zonalarni izchil rivojlantirish borasida yanada qulay shart-sharoitlar yaratish talab etiladi.

Xorijiy investorlarga mamlakatimiz iqtisodiyotining real sektorlariga investitsiya kiritishi uchun yanada qulay sharoitlar yaratish maqsadida erkin iqtisodiy zonalar uchun yagona huquqiy rejimni belgilash, soliq va bojxona imtiyozlari, preferentsiyalarni birxillashtirish, mahalliy mineral-xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlaydigan va yuqori qo'shimcha qiymatga ega raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqaradigan yuqori texnologiyali va mahalliyashtiriladigan zamonaviy korxonalarini tashkil qilish uchun to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni, avvalambor, xorijiy investitsiyalarni faol jalb etish, erkin iqtisodiy zonalarning muayyan sohaga ixtisoslashuvini qo'llab-quvvatlash va ularda sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish asosiy vazifa etib belgilangan.

## KALIT SO'ZLAR

Tashqi iqtisodiy faoliyat, tashqi iqtisodiy siyosat, erkin iqtisodiy hududlar bojxona rasmiylashtiruvi, erkin texnik hududlar, erkin servis hududlar, erkin savdo hududlari, bojxona nazorati va rasmiylashtiruvi soddalashtirish, bojxona imtiyozlari.

## **SUMMERY**

One of the main tasks assigned to the customs authorities of the Republic of Uzbekistan is to regulate the movement of goods and vehicles in free economic zones. To establish new high-tech production facilities in our country, to more actively attract regions to master the production of competitive and export-oriented modern industrial products, to ensure the rapid development of production, engineering-communication, road transport, social infrastructure and logistics services as the most important factor for the expansion of investment attraction, it is necessary to create more favorable conditions for the consistent development of free economic zones.

In order to create more favorable conditions for foreign investors to invest in the real sectors of our country's economy, establishing a single legal regime for free economic zones, tax and customs benefits, unification of preferences, high-tech products that deeply process local mineral resources and produce competitive products with high added value and the main task is to actively attract direct investments, first of all foreign investments, to support the specialization of free economic zones in a certain field and to develop industrial cooperation in them for the organization of modern enterprises that can be localized.

## **KEY WORDS**

Foreign economic activity, foreign economic policy, customs clearance of free economic zones, free technical zones, free service zones, free trade zones, simplification of customs control and clearance, customs privileges.



## MUNDARIJA

ANNOTATSIYA.....	3
Keltirilgan jadvallar ro'yxati.....	6
Keltirilgan rasmlar ruyxati.....	7
<b>I – BOB. KIRISH.....</b>	<b>8</b>
1.1. Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.....	9
1.2. Tadqiqot maqsadi va vazifalari.....	10
1.3. Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari.....	10
1.4. Tadqiqot maqsadi va predmeti.....	11
1.5. Tadqiqot natijalarining ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati.....	12
1.6. Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi.....	12
<b>II-BOB. ADABIYOTLAR SHARXI.....</b>	<b>13</b>
2.1. Kirish.....	13
2.2. Ma'ruzaga oid ilmiy-nazariy qarashlar.....	13
2.3. Mavzuga oid mahalliy me'yoriy-huquqiy hujjatlar sharhi.....	26
<b>III-BOB. METODOLOGIYA.....</b>	<b>31</b>
3.1. Tadqiqot dizayni.....	31
3.2. Ma'lumotlarni to'plash .....	32
3.3. Tahlil uchun qo'llaniladigan usullar.....	32
3.4. Tadqiqotni o'tkazish uchun zarur sharoitlar.....	33
3.5. Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi.....	33
3.6. Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalar.....	34
<b>IV-BOB. TAHLIL VA NATIJALAR.....</b>	<b>35</b>
4.1. "Navoiy" erkin industrial iqtisodiy xududi faoliyatining asosiy natijalari va tahlili.....	35
4.2. Erkin iqtisodiy zonalar hududida soliqlar va bojxona to'lovlari bo'yicha berilgan imtiyozlarning ahamiyatli jihatlari .....	45
4.3. Erkin iqtisodiy hududlarning investitsion kapital oqimini ta'minlashdagi o'rni ...	57
<b>V-BOB. XULOSA.....</b>	<b>66</b>
5.1. Tadqiqot savoliga tegishli natijalarning qisqacha ifodasi.....	66
5.2. Tadqiqotning asosiy taklif va tavsiyalari .....	66
5.3. Tadqiqot cheklolari va kelgusi tadqiqotlar uchun takliflar .....	67

## KIRISH

Tarixga nazar salsak erkin iqtisodiy hududlarni o'z kelib chiqish tarixi borligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Dastlab insonlar ming yillar davomida dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik bilan kun kechirishgan. Taraqqiyotning keyingi bosqichlarida esa yangidan-yangi sohalar paydo bo'lib borgan va davom etib kelmoqda.

Biz bugun ana shunday qadimiy yo'nalishlardan biri bo'lgan erkin iqtisodiy hududlar va uning rivojlanish bosqichlariga to'xtalib o'tamiz.

Erkin (maxsus) iqtisodiy zonalar (EIZ) qadimgi xo'jalik tuzilmalaridan biri sanaladi. Ushbu iqtisodiy tuzilmalarning mohiyatini ochib beradigan ta'rif 1973 yilda ilk bor rasman e'lon qilindi. Kioto konventsiyasida: "Erkin iqtisodiy zona (yoki "frank zonasi") deganda, mamlakat hududining bir qismi hisoblanib, unda tovarlar milliy bojxona hududidan tashqaridagi ob'ektlar sifatida ko'rib chiqilishi va shu sababli oddiy bojxona nazorati va soliqqa tortish tartibiga bo'ysunmasligi nazarda tutilgan". Professor K.A.Semenov erkin iqtisodiy zonalarga quyidagi ta'rifini beradi: "Erkin iqtisodiy zonalar ma'lum bir davlatda siyosiy markazlar tomonidan xo'jalik faoliyati uchun umumiy qabul qilingan tartibga nisbatan imtiyozli rejim o'rnatilgan geografik hududlardir".

*Ko'rib turganimizdek, ushbu ta'rifda iqtisodiy tuzilmalarning xo'jalik faoliyatiga davlat hokimiyati organlarining ta'siri cheklanganligi, imtiyozlar tizimi mavjudligi, anklavligi va hududiylikini aks ettiradi. EIZning kengroq ma'nodagi ta'riflari T.P.Daniko va Z.M.Okrut kabi olimlar tomonidan berilgan, ular ta'kidlashicha: "Erkin iqtisodiy zonalar davlatning (davlatlarning) suveren hududi bo'lib, ular mamlakat (mamlakatlar guruhi) xo'jalik kompleksining ajralmas qismi hisoblanadi va bu yerda muayyan, konkret umummilliy, korporativ maqsadga erishish uchun ijtimoiy mahsulotni ishlab chiqarish va taqsimlash ta'minlanadi". EIZning ushbu ta'rifida hududiy suverenitet, kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning taqsimlash munosabatlari, tartibga solish maqsadlari o'zida aks ettirilgan bo'lsa-da, ammo ushbu maxsus tartibga solish mexanizmi o'z ichiga nimalarni olganligi aniq ko'rsatilmagan.*